



**Surxondaryo viloyati Denov tumani Nomozgoh mahallasida Xoja Alouddin Attor (XIV asr) ziyoratgohi loylashgan. Xoja Alouddin Attor nafaqat Surxon vohasi, balki Movarounnahr ma'naviy hayotida muhim o'rin tutgan mutasavvu folimdir. Surxondaryo viloyati Denov tumani Nomozgoh mahallasida Xoja Alouddin Attor (XIV asr) ziyoratgohi joylashgan. Xoja Alouddin Attor nafaqat Surxon vohasi, balki Movarounnahr ma'naviy hayotida muhim o'rin tutgan mutasaffuf olimdir.. U hazrat Bahouddin Naqshbandning sevimli shogirdi va kuyovi, ikki buyuk xalifasidan biri bo'lib asl ismlari Muhammad ibn Muhammad Xorazimiydir.**



**Otasi xorazomlik bo'lgan, attorlik savdosi bilan shug'illangan. Biroq Navoiyning asarida Buxoriy taxallusi bilan keltiriladi. Xorazmda tug'ilgan. Buxoro madrasasida ta'lim olgan. Talabalik vaqtida Bahouddin Naqshband hazratlarini pir tutub, sulukiga kiradi. Xoja Naqshband u kishiga ulug' iltifot ko'rsatib, o'ziga kuyov qiladi .Alouddin Attor bir umr Naqshband hazratlari bilan birga bo'lib, ko 'p kishilarni tarbiya qiladi. Alouddin Attor ma'naviy kamolotga etkazdi.**



**Sayid Muhammad (Alouddin Attor) ibn Sayid Amir Muhammad Buxoriy ibn Sayid Abdulloh Zarbaxsh ibn Sayid Ahmad (Sayid Ato) ibn Sayid Abu Bakr ibn Sayid Qosim ibn Sayid Muso ibn Sayid Abdulloh ibn Sayid Muhammad Shahid ibn Sayid Abdulaziz ibn Sayid Ja'far ibn Sayid Abdulhaq ibn Sayid Mujtahid ibn Sayid Muhammad Kabir ibn Sayid Ibrohim Rizo ibn Hazrat Ali Muso ar Rizo va boshqalar xullas to Ali r.a.gacha boradi. Xoja Alouddinni Attor deyishlariga sabab undan doimo xush bo'y anqib turgan, shuningdek, suhbatlari ham yoqimli bo'lgan. Shu bois Xoja Alouddinga Attor unvoni berilgan.**



Xoja Alouddin oilasi bilan birga Denovga (hozirgi Surxondaryo viloyati Denov shahar borib, o'sha yerdagi xonaqohda shogirtlar tarbiyas ibilan mashg'ul bo'ladi. Xoja Alouddin Attor 1400-yil vafot etadi. Uning qabri Denavdadir.

## Ushbu ma'lumotlar

T. Turdiyevning "Denov tafakkur charog'lari" nomli asaridan olindi.

📌 Ushbu asarni to'liq o'qib chiqishni tavsiya etamiz.

📌 Asarni Denov tuman AKMning Bibliografiya xizmatida tashkil etilgan "Tumanimiz ijodkorlari" nomli mavzuda kitob ko'rgazmasidan olib o'qishingiz mumkin.

Foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish arkunisoat 9-00 dan 18-00 gacha.

**Bizning manzil:**

Denov tuman "Do'stlik" m/f

"Buyuk ipak yo'li" ko'chasi 1-uy

Tel

Denov Tuman Axborot – kutubxona

markazi.

**O'zbekiston Respublikasi**

**Surxondaryo viloyati  
Denov tuman  
Axborot – kutubxona  
markazi**

**Axborot-bibliografiya  
xizmati**



*Denov*

